SIFATLI TA'LIM – YORQIN KELAJAK
ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ
UDK: 796.422:37.017
ORCID: 0009-0006-7348-655X
SHOIMQULOV XAYRULLO DJO'RANIYOZOVICH.
Termiz davlat pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: shoimqulovxayrullo0011@gmail.com

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING JISMONIY QOBILIYATLARINI SUJETLI HARAKATLI O'YINLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: PEDAGOGIK MODEL VA TAJRIBA-SINOV TADQIQOTI

ANNOTATSIYA: Ushbu tadqiqot boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy qobiliyatlarini sujetli harakatli o'yinlar asosida rivojlantirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borilib, tezkorlik, chaqqonlik, epchillik va koordinatsiya kabi jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasi tahlil qilindi.

Ishlab chiqilgan pedagogik model o'quv jarayoniga integratsiyalashgan holda qo'llanildi va natijalar tajriba guruhida jismoniy ko'rsatkichlarning sezilarli darajada yaxshilanganini ko'rsatdi. Olingan natijalar boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini samarali tashkil etishda sujetli harakatli o'yinlarning muhim.

Mazkur maqolaning dolzarbligi ham aynan boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishda sujetli harakatli o'yinlardan foydalanishning samarali pedagogik modelini yaratish va uni tajriba-sinov asosida asoslash zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqot doirasida o'quv jarayoniga integratsiyalashgan, mazmuniy va metodik jihatdan puxta ishlab chiqilgan tizim taklif etilib, uning samaradorligi amaliy sinov orqali aniqlanadi.

Shu tariqa, boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini takomillashtirish, o'yin texnologiyalarini tizimli qo'llash hamda bolalarning jismoniy rivojlanishini samarali tashkil etish mazkur tadqiqotning asosiy ilmiy yo'nalishini tashkil etadi.

KALIT SO'ZLAR: *Boshlang'ich ta'lim, jismoniy qobiliyat, sujetli harakatli o'yinlar, pedagogik model.*

УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ РАЗВИТИЯ ФИЗИЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ НА ОСНОВЕ ТЕМАТИЧЕСКИХ ДВИГАТЕЛЬНЫХ ИГР: ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ И ПИЛОТНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ

АННОТАЦИЯ: Целью данного исследования является совершенствование системы развития физических способностей учащихся начальной школы на основе тематических двигательных игр. В ходе исследования была проведена педагогическая экспериментальная работа, проанализирован уровень развития таких физических качеств, как скорость, ловкость, сноровка и координация.

Разработанная педагогическая модель была интегрирована в образовательный процесс, и результаты показали значительное улучшение физических показателей в экспериментальной группе. Полученные результаты указывают на важность тематических двигательных игр в эффективной организации уроков физкультуры в начальной школе.

Актуальность данной статьи определяется необходимостью создания эффективной педагогической модели использования сюжетных подвижных игр в развитии физических способностей учащихся начальных классов и ее экспериментального обоснования. В рамках исследования предлагается система, интегрированная в учебный процесс, тщательно разработанная с содержательной и методической точки зрения, эффективность которой определяется путем практического тестирования.

Таким образом, совершенствование занятий по физическому воспитанию в начальном образовании, систематическое применение игровых технологий и эффективная организация физического развития детей составляют основное научное направление данного исследования.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *начальное образование, физические способности, тематические подвижные игры, педагогическая модель.*

IMPROVING THE SYSTEM FOR DEVELOPING THE PHYSICAL ABILITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS BASED ON THEMATIC MOVEMENT GAMES: A PEDAGOGICAL MODEL AND PILOT STUDY

ABSTRACT: This study is aimed at improving the system of developing physical abilities of primary school students based on thematic movement games. During the research, pedagogical experimental work was carried out, and the level of development of such physical qualities as speed, agility, dexterity and coordination was analyzed.

The developed pedagogical model was applied in an integrated manner in the educational process, and the results showed a significant improvement in physical indicators in the experimental group. The results obtained indicate the importance of thematic movement games in the effective organization of physical education classes in primary education.

The relevance of this article is determined by the need to create an effective pedagogical model for using action-based games in the development of physical abilities of primary school students and its experimental substantiation. Within the framework of the study, a system is proposed that is integrated into the educational process, carefully developed from a content and methodological point of view, the effectiveness of which is determined by practical testing.

Thus, improving physical education classes in primary education, systematically applying game technologies, and effectively organizing children's physical development constitute the main scientific direction of this research.

KEY WORDS: *Primary education, physical abilities, thematic action games, pedagogical model.*

KIRISH. Boshlang'ich ta'lim bosqichi bolalarning jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Aynan shu davrda harakat faolligi, asosiy jismoniy sifatlar va sog'lom turmush tarziga bo'lgan ehtiyoj shakllanadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning harakat faolligi kamayib borayotgani, dars mashg'ulotlarining ko'proq statik xarakter kasb etayotgani jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy qobiliyatlarini samarali rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya jarayonida harakatli o'yinlar, ayniqsa sujetli (mazmunli) o'yinlar bolalarning yosh va psixofiziologik xususiyatlariga mosligi bilan ajralib turadi. Sujetli harakatli o'yinlar o'quvchilarda nafaqat tezkorlik, chaqqonlik, epchillik va koordinatsiya kabi jismoniy sifatlarni, balki tashabbuskorlik, ijodkorlik va jamoada hamkorlik qilish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Biroq amaliyotda ushbu o'yinlardan foydalanish ko'proq epizodik xarakterga ega bo'lib, ularning tizimli, maqsadli va metodik asoslangan modeli yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi ham aynan boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishda sujetli harakatli o'yinlardan foydalanishning samarali pedagogik modelini yaratish va uni tajriba-sinov asosida asoslash zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqot doirasida o'quv jarayoniga integratsiyalashgan, mazmuniy va metodik jihatdan puxta ishlab chiqilgan tizim taklif etilib, uning samaradorligi amaliy sinov orqali aniqlanadi.

Shu tariqa, boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini takomillashtirish, o'yin texnologiyalarini tizimli qo'llash hamda bolalarning jismoniy rivojlanishini samarali tashkil etish mazkur tadqiqotning asosiy ilmiy yo'nalishini tashkil etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR: Hozirgi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy rivojlanishini samarali tashkil etish ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. Bolalarda jismoniy faollikni oshirish, tezkorlik, chaqqonlik, kuch va chidamlilik kabi jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirishda harakatli o'yinlar muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, syujetli harakatli o'yinlar o'quvchilarning qiziqishini oshirib, ularning jismoniy va psixologik rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy qobiliyatlarini syujetli harakatli o'yinlar asosida rivojlantirish tizimini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi: Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy qobiliyatlarini syujetli harakatli o'yinlar asosida rivojlantirish tizimini takomillashtirish hamda uning samaradorligini pedagogik model va tajriba-sinov tadqiqotlari orqali asoslash.

Tadqiqot vazifalari: Tadqiqot jarayonida mavzu bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlil qilinadi, boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishda sujetli harakatli o'yinlarning ahamiyati aniqlanadi. Shuningdek, ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun pedagogik model ishlab chiqiladi, tajriba-sinov ishlari o'tkazilib, olingan natijalar tahlil qilinadi hamda tegishli xulosalar ishlab chiqiladi.

№	O'yin nomi	Asosiy maqsad	Rivojlantiriladigan jismoniy qobiliyatlar	O'yin tavsifi
1	Qutqaruvchi qahramon	Chaqqonlikni rivojlantirish	Tezlik, reaktsiya, muvozanat	Bolalar ikki guruhga bo'linadi. Bir guruh qahramonlar, ikkinchisi esa "jinoyatchilar". Qahramonlar «jinoyatchilar» tomonidan «ushlangan» bolalarni ozod qilishlari kerak.
2	Sherlar va kiyiklar	Muvozanat va tezkorlikni oshirish	Yugurish, koordinatsiya, chaqqonlik	Bolalar «sherlar» va «kiyiklar»ga bo'linadi. «Sherlar» «kiyiklar»ni quvlaydi. «Kiyiklar» maxsus hududga yetib olsalar, ular xavfsiz bo'ladi.
3	Sehrli orol	Jamoaviy ishlash va chaqqonlik	Sakrash, yugurish, kuch	Bolalar «oroldan orolga» sakrab harakat qilishadi. Oraliqdagi hudud «suv» bo'lib, unga tushib ketmaslik kerak.
4	O'rmon sarguzashti	Muvozanat va moslashuvchanlikni oshirish	Muvozanat, reaksiya, chidamlilik	Bolalar daraxtlar, jarliklar va to'siqlardan o'tish kerak bo'lgan «o'rmon»dan o'tishadi.
5	Sehrgar va qushlar	Eshitish va tezkor harakat qilish	Reaktsiya, e'tibor, tezlik	"Sehrgar" belgilangan so'zlarni aytganda, bolalar harakat-lanadi yoki to'xtaydi. Xato qilganlar o'yindan chiqadi.
6	Qahramonlar yo'li	Chidamlilik va jismoniy bardosh-likni oshirish	Yugurish, sakrash, kuch	Bolalar turli to'siqlardan o'tib, «maqsadga» yetishlari kerak.
7	Olovdan sakrash	Sakrash va muvoza-natni yaxshilash	Chaqqonlik, kuch, muvozanat	Bolalar «olov» (chizilgan yoki belgilangan maydon) ustidan sakrashadi va yiqilmay harakat qilishadi.
8	Yo'lbars izidan yugur	Tezlik va chidam-lilikni oshirish	Yugurish, reaktsiya, koordinatsiya	Bolalar yo'lbars rolida bo'lib, oldindan chizilgan iz bo'ylab yugurishadi. Kim izdan chiqsa, o'yindan chiqadi.
9	Sehrli doira	Diqqat va tezlikni oshirish	Reaktsiya, tezkorlik, moslashuvchanlik	Bolalar aylana bo'lib turadi. O'yinchi aylana ichida harakat-lanib, muayyan belgi yoki so'z bo'yicha harakatni bajaradi.
10	Dengizchilar va qaroqchilar	Jamoaviy ishlash va strategik fikrlash	Yugurish, chaqqonlik, kuch	Dengizchilar kemalarini himoya qilishadi, qaroqchilar esa ularni egallashga harakat qiladi.

TADQIQOT NATIJALARI VA UNI MUHOKAMASI: Tadqiqot jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishda sujetli harakatli o'yinlardan foydalanish samarali ekanligi aniqlandi. Tajriba-sinov natijalari shuni ko'rsatdiki, mazkur o'yinlar o'quvchilarning tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik va harakat faolligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Olingan natijalar tahlili asosida sujetli harakatli o'yinlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning jismoniy rivojlanishini yanada samarali ta'minlashi mumkinligi asoslab berildi

Bu jadval boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan syujetli harakatli o'yinlarni samarali tashkil etish uchun yordam beradi.

Syujetli harakatli o'yinlarning ahamiyati

Syujetli harakatli o'yinlar – bolalarning jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi samarali usullardan biridir. Ushbu o'yinlar orqali:

Jismoniy qobiliyatlar (chaqqonlik, tezlik, chidamlilik, muvozanat) rivojlantiriladi;

Koordinatsiya va harakat aniqligi oshiriladi;

Mantiqiy tafakkur va ijodiy fikrlash shakllanadi;

Jamoada ishlash ko'nikmalari rivojlantiriladi;

Sportga bo'lgan qiziqish ortadi.

Syujetli harakatli o'yinlar tizimini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari

1.Metodik yondashuvni shakllantirish

Harakatli o'yinlar bolalarning yosh xususiyatlariga mos ravishda tanlanishi lozim.

O'yin jarayonida bolalarning harakat faolligini oshirish uchun motivatsion elementlardan foydalanish muhim.

2.Dars jarayonida harakatli o'yinlarni to'g'ri tashkil etish

O'yin oldidan mashq qilish va harakatli tayyorgarlik bosqichini joriy etish.

O'yin davomida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish.

O'yin tugaganidan so'ng refleksiya va muhokama o'tkazish.

3.Syujetli o'yinlar mazmunini boyitish

Milliy an'analar va madaniyatga mos keluvchi harakatli o'yinlarni kiritish.

Turli mavzular asosida syujet yaratish (masalan, sarguzashtlar, ertak qahramonlari, sport musobaqalari).

4.O'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash

O'yin qoidalarini tushuntirishda o'quvchilarni jalb qilish.

Rahbarlik va mustaqil harakat qilish imkoniyatini berish.

O'yin natijalarini baholash va rag'batlantirish tizimini joriy etish.

XULOSA: Mazkur tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishda sujetli harakatli o'yinlardan tizimli va maqsadli foydalanish yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Ishlab chiqilgan pedagogik model mazmuniy, metodik va tashkiliy jihatdan asoslangan bo'lib, u jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini bolalarning yosh xususiyatlari hamda psixofiziologik imkoniyatlariga mos holda tashkil etishga xizmat qiladi.

Tajriba-sinov ishlari natijasida tajriba guruhidagi o'quvchilarda tezkorlik, chaqqonlik, epchillik va koordinatsion qobiliyatlarning sezilarli darajada yaxshilangani aniqlandi. Bu esa sujetli harakatli o'yinlarning nafaqat harakat faolligini oshirish, balki jismoniy sifatlarni kompleks rivojlantirishda muhim pedagogik vosita ekanligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, taklif etilgan tizim o'quvchilarda qiziqish va motivatsiyani kuchaytirib, dars jarayonining emotsional jihatdan boy va samarali tashkil etilishiga imkon yaratadi. Natijada jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining samaradorligi ortadi hamda boshlang'ich ta'lim bosqichida sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun mustahkam asos yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Ашмарин, Б. А. (1990). Теория и методика физического воспитания. Москва: Просвещение.

2.Матвеев, Л. П. (2004). Теория и методика физической культуры. Москва: СпортАкадемПресс.

3.Лях, В. И. (2012). Физическая культура. 1–4 классы. Москва: Просвещение.

4.Боген, М. М. (1985). Обучение двигательным действиям. Москва: Физкультура и спорт.

5.Давыдов, В. В. (1996). Теория развивающего обучения. Москва: Интор.

6.Epstein, D., & Goldberger, S. (2010). The effects of physical activity on children's motor development. Journal of Teaching in Physical Education, 29(3), 287–301.

7.Bailey, R. (2006). Physical education and sport in schools: A review of benefits and outcomes. Journal of School Health, 76(8), 397–401.

8.Kirk, D. (2010). Physical Education Futures. London: Routledge.

9.Pangrazi, R. P., & Beighle, A. (2019). Dynamic Physical Education for Elementary School Children. Champaign, IL: Human Kinetics.

UNESCO. (2015). Quality Physical Education (QPE): Guidelines for Policy Makers. Paris: UNESCO Publishing.